



Tadqiqot.uz

# ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2020

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



No 17  
30 июнь

conferences.uz

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 17-КҮП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
24-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
17-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ-24**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
17-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART-24**

**ТОШКЕНТ-2020**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

## "Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 17-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 июнь 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 16 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Маъсул мұхаррір:** Файзиев Шоҳруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

### **1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

### **2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

### **3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

### **4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

### **5.Давлат бошқаруви**

PhD Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

### **6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

### **7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содикovich, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содикovich, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Сахифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**ГЕОЛОГИЯ-МИНЕРОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ  
ИННОВАЦИЯЛАР**

**1. Z. Narziyeva**

ULUG'DIR DUNYODA OTA DEGAN NOM ..... 7

**2. Неъматов Абдуғани, Холтураева Шахноза**

ЧУҚУР ЕР ОСТИ ФОВАК ҚАТЛАМЛАРИГА САНОАТ ЧИҚИНДИ-ОҚОВА  
СУВЛАРИНИ ҲАЙДАШДА ЖАҲОН ТАЖРИБАЛАРИ ..... 11

**3. Ma'mura Rejapova Isroyilnovna**

GEOGRAFIYA TA'LIMIDA TELEMASSHG'ULOTLARNING O'RNI ..... 13

**4. Karimova To'paxon Mirzajanova**

GEOGRAFIK QOBIQ HAMDA ABIOTIK OMILLAR ..... 15



## ГЕОЛОГИЯ-МИНЕРОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

### ULUG'DIR DUNYODA OTA DEGAN NOM

Z. Narziyeva  
*Buxoro viloyat Vobkent tumani 6-IDUMI  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.  
Telefon +998914152280  
illidan.uz@gmail.com*

**Annotatsiya:** Maqolada o‘zbek adabiyotining oltin fondiga kirgan asarlarda ota timsolining aks etganligi, otaning oiladagi, jamiyatdagi o‘rni naqadar ulug‘ ekanligi badiiy lavhalar bilan asoslab berilgan. Keltirilgan asarlar davriy ketma-ketlikka ham ega, ularda xalq og‘zaki ijodi, xonlik davri, qatag‘on yillari, II Jahon urushu yillari va mustaqillik yillari davrida yaratilgan asarlar misolida muxtasar maqolada Sharqona tarbiya , umuminsoniy qadriyatlar bilan hamohang ekanligi ko‘rsatiladi. Chunki ota timsoli , ota qadri chegara bilmaydi. Maqola barcha adabiyot ixlosmandlari uchun foydali va e’tiborga olinadi , deb umid qilamiz.

**Kalit so‘zlar:** otaning mavqeい, oiladagi o‘rni, oila byudjeti, etalon-tarbiya namunasi, buyuklik timsoli, mehr ummoni,

Oila va uning jamiyat hayotidagi o‘rni beqiyos bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-bobi oilaga bag‘ishlangan. Oilaning to‘iq bo‘lishi , budgeti, farzandlar tarbiyasida otaning o‘rni beqiyos. Xalqimizda azal-azaldan “Mehmon otangday ulug”, “Ustoz otanday ulug” deganda otaning mavqeい oilada baland ekanligiga ishora qilingan. Hatto o‘g‘il bolaga “ otam” , qiz bolaga “onam” deb erkalab murojaat qilishlarida ham bir olam mazmun bor: bu bolaga ulug‘vorlik, bobo-buvilariga nisbatan faxr-iftixor , ota-onaga mehr, ajdodlarga munosib vorislik tuyg‘ularini tarbiyalaydi. Qaysi oilada ona turmush o‘rtog‘ini qadrlasa, o‘sha oilada farzandlar ham otasiga hurmat- e’tiborli bo‘ladi. Bizga onalarimiz yoshligimizdan “Uylarni ozoda saqlang , dadang kelyaptilar “, “Shovqin qilmang ,dadang dam olyaptilar”..deb o‘zimiz bilmagan holda bizga otaning salobati-yu saxovatiga munosib e’tiborni o‘rgatganlar. O‘zbek oilalarida o‘g‘il farzandlar bobo-buvilar o‘giti-yu ota-onalar namunasi bilan ulg‘ayadi. O‘g‘il bolani kichiklidan mozor ziyoratiga , qutlug‘ qadamjolarga olib borib, ziyorat odobini , jamoat joylarida yurish-turish, ozini tutishni , muomala odobini otalar yoki bobolar o‘rgatishadi. Otalar,odatda, ko‘p gapirib, farzandga mehrini ochiq-oshkora ko‘rsatavermaydilar,ammo farzand mehri ularning qoniga , joniga singib ketgan bo‘ladi.

“Uch og‘a-ini botirlar” ertagidagi otaning farzandlariga nasihatini eslang:”...Ozimdan keyin baxtsiz bo‘lib qolmang deb, sizlarni o‘qitdim. Yaxshi ot qo‘ydim. To‘y qildim, voyaga yetkazdim.Buning ustiga sizlarni yana 3 narsa bilan tarbiya qildim: Birinchidan, sog‘lom vujudli qilib o‘stirdim-quvvatli bo‘ldingiz.Ikkinchidan, yarog‘ bilan tanishtirdim-yarog‘ ishlatishga usta bo‘ldingiz. Uchinchidan, qo‘rqtymay o‘stirdim-qo‘rqaq bo‘lmay, botir bo‘ldingiz, yana 3 ta narsani aytaman, quloqlaringizga olib, eslaringizdan chiqarmanglar. To‘g‘ri bo‘ling-bexavotir bo‘lasiz. Maqtanchoq bo‘lmang-xijolat tortmaysiz. Dangasalik qilmang-baxtsiz bo‘lmaysiz. Bundan boshqasini o‘zingiz biling”. Bu oddiy xalqona so‘zlar xuddi otalarning farzandlari oldidagi burchi , belgilab berilgan dasturga o‘xshaydi.Shu o‘rinda sharqona ota-bola munosabatlriни yaqqol kuzatishimiz mumkin. Darhaqiqat, o‘g‘il bolaning tarbiyasida, unda iroda sifatlarining tarbiyanishida hayot sinovlaridan o‘tgan, tajribali ota-bobolarning o‘rni beqiyos ekanligi bugungi kunda ham dolzarb mavzulardan biri bo‘lib qolmoqda.

Abdulla Qodiriy o‘zbek adabiyotida milliy romanning ilk go‘zal namunasini yaratgan ijodkor



bo'libgina qolamay, ota obrazining ham eng yuksak namunasini yaratgan adibdir, Uning "O'tkan kunlar " romanidagi Yusufbek hoji oilaparvar, elparvar, yurtparvar ota timsolidir. Otarlarga xos jiddiylik, mulohazakorlik , donolik uning tabiatiga singib ketgan." Yusufbek hojining qiziq bir odati bor: xotin bilangina emas, umuman uy ichi bilan har qanday masala ustida bo'lsa bo'lsin uzoq so'zlashib o'lturmaydir. Otabekmi, onasimi, Hasanalmi, ishqilib uy ichidan birartasining so'zлari va yo kengashlari bo'lsa, kelib hojining yuziga qaraydurlar. Hoji bir necha vaqt so'zlaguvchini o'z og'ziga tikiltirib o'lturg'andan so'ng , agar ma'qul tushsa, "xo'b" deydir, gapka tushunmagan bo'lsa "xo'sh" deydir, noqa'qul bo'lsa "durust emas" deydir va juda ham o'ziga noma'qul gap bo'lsa bir iljayib qo'yish bilan kifoyalanib, mundan boshqa so'z aytmaydir va aytsa ham uch-to'rt kalimadan nariga oshmaydir. Uy ichi uning bu fe'liga juda yaxshi tushunganliklaridan ko'pinch bir javob olish bilan kifoyalanadirlar. Ammo Otabek bilan birar to'g'rida so'zlashmakchi bo'lsa, uni aksar mehmonxonaga chaqirib yoki chaqirtirib oladir". Yusufbek hojining Rajabbeknikida bo'lган kengash haqidagi yuragi yonib so'zlagan so'zлari nafaqat oilaparvar, fidoyi otaning, balki yurtparvar, elparvar otaning ,yurt otasining fikri bo'lib yangraydi: "Men ko'b umrimni shu yurtning tinchlig'i va fuqaroning osoyishi uchun sarf qilib, o'zimga azobdan boshqa hech qanoat hosil qilolmadim. Ittifoqni ne el ekanini bilmagan, yolg'iz o'z manfaati shaxsiyasi yo'lida bir-birini yeb-ichkan mansabparast , dunyoparast va shuhratparast muttahamlar Turkiston tuprog'idan yo'qolmay turib, bizning odam bo'lishimizg'a aqlim yetmay qoldi..". Yusufbek hoji timsolida Vatan taqdiri, kelajagi uchun qayg'урган sheryurak, bahodir otalarimizni ko'ramiz.

Otaning farzandga mehri beqiyos. Akademik shoir Gafur G'ulomning

" Sog'inish"1 she'ri otaning farzandi yo'lida sog'inchiga qo'yilgan haykal, desak yanglishmaymiz.She'rda o'glini jangga kuzatib, yo'lida ko'zлari nigoron otaning qalb kechinmalari o'z ifodasini topgan:

Zo'r karvon yo'lida yetim bo'tadek,

Intizor ko'zlarda halqa- halqa yosh.

Eng kichik zarradan Yupitergacha

O'zing murabbiysan, xabar ber, Quyosh!

Bunda "zo'r karvon"- jangga ketgan o'zbek yigitlari karvoni, " yetim bo'ta"- o'glining firog'ida qovrilgan ota timsoli. Farzand uchun ota qanchalik katta ruhiy madad, quvvat bo'lsa, ota uchun farzand ham shunday ko'ngil xotirjamligi, quvonchi, tayanchi, suyanchidir. Otaning " yetim bo'tadek" termulishi shundan,

" eng kichik zarradan Yupitergacha"- barchasining ijodkori , Yaratganga iltijo qilishi shundan.

O'glini jangga kuzatayotgan ota farzandining nafaqat qaddi-qomati bilan, balki jismoniy va ma'naviy yetukligi, mardligi, milliy g'urur , iftixor , mehr-oqibat tuyg'ularining dilbandida aks etib turganidan ko'ngli to'jadi:

Unda yetuk edi meros mard g'urur,

Ostonani o'pib, qasamyod qildi.

Ukalarin erkalab, o'zimday mag'rur,

Ya'ni obod uyimni u dilshod qildi...

O'zbek xonardonlarida kechki ovqat mahalida oila jamlanishhi milliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan. Butun oila a'zolari oila boshlig'ini, xonodon ahli to'liq bo'lishini kutadi, kimdir yetishmasa- armiyaga, o'qishga...ketgan bo'lsa, ko'ngil buzilib, ko'zlarga yosh olinadi. Bu holatni dildan his etgan shoirning so'zlariga e'tibor bering:

...Kechqurun osh suzsak, bir nasiba kam,

Qo'msayman birovni, allakimimni,

Doimo umidim bardam bo'lsa ham,

Ba'zan vasvasalar bosar dilimni.

O'g'lini jangga kuzatgan ota unga daydi o'q tegishidan xavfsiraydi, bu o'ydan joni titraydi:

Balki bir g'alat o'q yo xavf-u xatar

Xazinai umrimdan yo'qotdi olmos...

Bu yomon xayollardan xalos bo'lish uchun ota Bedilni o'qiydi. Bu- ziyoli xalqimizga xos



xususiyat, har qanday qiyinchilikni ilm bilan , chiroyli sabr bilan , mehnat bilan yengishgan. Shu sabab “o‘rog‘-u gulqaychi, istak ko‘tarib bog‘ga chiqadi, ammo u yerda o‘g‘lining sevgani-qo‘shni qizni ko‘rib otaning yana ko‘ngli allanechuk bo‘lib ketadi. Ammo mardona umid bilan deydi:

...Dur bo‘lib taqilar yoring bo‘yniga ,

Sadafday ko‘zimda behuda bu yosh.

Ikkoving ikki yosh, labing labiga

Qo‘yar, vasvasamdan kuladi quyosh.

Sog‘inch alamini mehnattadan olayotgan ota shu mehnati samarasi-savat to‘la shaftolilar bilan o‘g‘lini kutib olmoqchi. Shuningdek, avlodning davomiyligi, bog‘- Vatanni farzandiga topshirib ko‘ngli tinchishini xohlaydi, shundan umidvor:

Ye o‘g‘lim, jonginang salomat bo‘lsin,

O‘z bog‘ing, o‘z mevang danagin saqla.

Shu meros bog‘ingni o‘z qo‘lingga ol,

Menga topshirilgan merosiyl haq-la.

Ota timsoli Said Ahmadning “Ufq” romanida ham oziga xos tarzda aks etgan. Asardagi Ikromjon –qahramon, fidoyi, mehnatkash, vatanparvar ota. U jangdan qochgan o‘g‘li haqida eshitib: “Qani endi, u yaramas shu topda oldimda bo‘lsa , tilka-tilka qilsam. Bo‘g‘ib o‘ldirsam”-deydi, ammo bunga botina olarmikan? Yo‘q, chakalakzorda uni uchratib qolganda g‘azab bilan o‘q uzdi-yu,ammo“xayriyat tegmadi”, deydi. Chunki o‘gil noqobil bo‘lsa-da, jigargo‘sashi,qalbining bir parchasi. Hech kim bunday holatga tushmasin!

Odil Yoqubovning “ Muzqaymoq” hikoyasini eslang. Qatag‘on dahshatlaridan azob chekkan ota qancha ruhiy iztiroblarni boshidan kechirmasin, farzandga bo‘lgan mehri qish chillasidagi quyoshday yarq etib ko‘rinib, qalbiga yorug‘lik baxsh etadi. Qatag‘on tufayli ruhiy azoblarga duchor otaning iztiroblaridan bexabar holatda “Otam qattiqqo‘l, badjahl” deb o‘ylagan bola qamoqdagi so‘nggi uchrashuvda otasining “Senga muzqaymoq olib berolmadim” degan armonli so‘zini eshitib, “Endi menga pulning keragi yoq” deb o‘ziga berilgan puldan otasi 5 so‘mini unga bergenini ko‘rib,irodasi qancha kuchli bo‘lmasin, “Otajon!” deb yig‘lab yuboradi. Shu o‘rinda sevimli shoirimiz Yahyo Tog‘anining yuraklarni yunbushga keltiruvchi misralari yodimizga keladi:

Goh jahlga minsam-da sal,

Ichim to‘la mehr , qizim.

Goh sal qo‘pol, goh sal dag‘al

Dadajoning kechir, qizim.

Ha, otalik tuyg‘usi shunday ulug‘vor va hurmatga sazovor. Bu tuyg‘u umuminsoniy xarakterga ega. Inson borki bolam, oilam, elim,yurtim deydi, ammo o‘zbek otalarining mehrida milliy o‘ziga xoslik bor, ulug‘vorlik bor. Bugungi kunda oxiri yo‘q hoy-u havas, boylikka hirs qo‘yish natijasida ba‘zi oilalarda ajrimlar yoki otaning oiladagi o‘rni, nufuzining tushib ketganligini ko‘ramiz. Bunday holatlar ayolning turmush o‘rtog‘ini hurmat qilmasligi, farzandlar tarbiyasi buzilishi, oilada yetishib kelayotgan o‘g‘ilning, qizning kelajagiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Demak, oilada otaning o‘rni jamiyat uchun ham ma’naviyat tarozisi bo‘lib xizmat qilar ekan. Shu mezonni buzmaylik, azizlar, oila jamiyatning muhim qismi. Oilada ma’naviy muhit sog‘lom bo‘lsa, jamiyat taraqqiyoti ham ildam yuksaladi. O‘zbek oilalarida ota-oila tayanchi, suyanchi ,sardori-eng hurmatli zot.Uning o‘rni hamisha to‘rda.Ota-ulug‘ inson! “Ota duosi-o‘q”, “Ota rozi-Xudo rozi” degan maqollar ana shu jiddiy va mehridaryo otalar haqida. Bobolarimiz-faxrimiz, otalarimiz-oila ustunlarimiz, turmush o‘rtoqlarimiz-tayanchimiz, akalarimiz-suyanchimiz, farzandlarimiz-kelajagimiz doim omon bo‘lsinlar. Aka, o‘g‘il, ota, bobo- barchalari Vatan himoyachilari. Ular haqida hassos shoir G’afur G’ulom shunday o‘qli misralarni bitgan:

Yigitlar xalqlarning maqtovi-ko‘rki,

Naslning javhari, davlat tayanchi,

Yurtning obodligi , to‘ylar sababi,

Elning gurkirashi, fayzi, quvonchi...

Yigit omon bo‘lsa, xavf-u xatar yo‘q,



Qalqon bor: qal'a but, qo'rg'on salomat,  
Qizlar kulgisida avji daromad,  
Chollar uyqusida jannat, farog'at.

Bu she'r G'. G'ulomning Ikkinchi jahon urushiga ketib, qaytmagan o'g'li Jo'raxonga bag'ishlangan

Adabiyotlar ro'yxati

1. G'. B. Shoumarov, I.O. Haydarov, N.A.Sog'inov. Oila psixologiyasi. Toshkent-2011. 14-bet
2. S.Ahmedov , B. Qosimov, , R. Qo'chqorov, Sh Rizayev.5-sinf Adabiyot I qism.Toshkent-2015, 47-bet.
3. B. To'xliyev, B.Karimov, K. Usmonova. 10-sinf. Adabiyot.Toshkent-2017, 26-bet
4. O. Sulthonov va boshqalar 8-sinf Adabiyot . Toshkent- 2019, 108-bet, 207-209 betlar
5. S.Ahmedov, R. Qo'chqorov, Sh. Rizayev. 6-sinf Adabiyot I qism .Toshkent-2017, 132-bet.
- 6.N.Mahmudov va boshqalar 7-sinf Ona tili. Toshkent-2017, 73-bet.



## ЧУҚУР ЕР ОСТИ ҒОВАК ҚАТЛАМЛАРИГА САНОАТ ЧИҚИНДИ-ОҚОВА СУВЛАРИНИ ҲАЙДАШДА ЖАҲОН ТАЖРИБАЛАРИ

*"Замонавийаҳборот коммуникация  
технологиялари" кафедраси,  
Неъматов Абдугани  
т.ф.н, Мултимедиа ва аҳборот  
технологиялари кафедраси доценти,  
Холтураева Шахноза  
магистранти,  
Муҳаммад Ал-Хоразмийномидаги  
Тошкенттаҳбороттехнологиялариуниверситети  
(Тошкент, Ўзбекистон)  
Hamidovakatola93@gmail.com  
+998-(97)-3863405*

**Аннотация.** Хозирги даврда саноат-корхоналари ривожланиб кўпайиб бормоқда. Шу сабабли саноат-корхоналаридан чиқадиган чиқинди-оқова сувларни ер ости ғовак қатlamлariга хайдашда жаҳон тажрибасини ўрганиш ва шу асосида ўзимизда татбиқ қилиш.

**Калит сўзлар:** Саноатчиқиндилари, Ер ости, минерал ресурслар, «ЕххонМобил» ва «Чевронтехасо», Жанубий Америка, Шимолий Америка, нефт, нефт захиралари, Қитъа, Мексика кўрфази, газ ва нефт кони.

Саноат чиқиндиларини бошқариш, шу жумладан эритмалар ва пулпа шаклида ҳосил бўлган маҳсулотлар 20-асрдан мерос бўлиб қолган муаммо. Илгари қўлланилган ва давом этаётган усувлар, уларнинг асосийлари атроф-муҳитга саноат чиқиндиларини - дарёлар, кўллар ва денгизларга чиқариш, сув ҳавзаларида чиқиндиларнинг тўпланиши атроф-муҳитнинг ифлосланишига ва натижада инсон таъсирига олиб келади [1].

Материаллар ёки энергия ишлаб чиқариш жараённада ҳосил бўлган барча моддаларга турли мақсадларда фойдаланишга имкон берадиган ёки улардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ бўлгунча сақланадиган хусусиятларга эга бўлганда чиқиндиларнинг йўқлиги муаммонинг туб ечими ҳисобланади. Бироқ, бундай технологияларни жорий қилиш учун сарф-харажатлар жуда катта, шунинг учун саноат оқова сувларини тозалаш учун турли хил технологиялар қўлланилади, улар атроф-муҳит ва одамларни етарли даражада иқтисодий кўрсаткичлар билан ҳимоя қилишни бирлаштиради. Ушбу технологиялардан бири саноат захираларини чуқур геологик тузилмалари ёки ер қаърига йуналтириш дир. Ер ости бойликлари ноёб хусусиятларга эга бўлиб, улар таркибида турли хил моддаларнинг қаттиқ ва суюқ шаклида тўпланган ва чекланган ҳажмда сақланиши узоқ вақт давомида уларнинг тузилишининг барқарорлиги билан ажralиб туради. Чиқиндиларни каналларга ташлаш, ишлатилган минерал ресурслар қолдикларини қайтариш сифатида кўриб чиқилиши мумкин. Бунинг учун қулай геологик шароитларда мумкин бўлган жойда, кўмилиш жойининг геологик тузилиши олдиндан ўрганиб чиқилиши керак [2].

Суюқ (саноат чиқиндилари), пулпага ўхшаш чиқиндилар ва газ чиқиндиларини йўқ қилиш муаммолари 2003 йил 22-25 октябр кунлари АҚШ нинг Беркли шаҳрида бўлиб ўтган халқаро конференцияда АҚШ атроф-муҳитни муҳофаза қилиш агентлиги (ЭПА) ва Энергетика вазирлиги (ДОЕ) томонидан АҚШ нинг бир қатор илмий ва тижорат ташкилотлари томонидан ҳомийлик қилинган турли мамлакатлар олимлари ва мутахассисларининг 70 та маъruzalari такдим этилди.

Анжуман материалларидан кўриниб турибдики, АҚШ ушбу экологик технологияни чиқиндиларни бошқариш учун кенг миқёсда ишлатишда давом этмоқда, бу чет элда қудук инъекцияси деб аталади. Саноат канализациясининг кўмилиши, уларни қудуқ орқали те-



шикдан ўтказиб, изоляцияланган ғовакли ўтказувчан жинсларнинг (сув омборлари) чуқур қатламларига қуишидан иборат[3].

Адабиётларрўйхати

1. Родионов А. И, Клушин В.Н., Систер В.Г Технологические процессы экологической безопасности. Основы энвайронменталистики – Калуга: Издательство Н. Бочкаревой, 2000.
2. Марцул В.Н., Капориков В.П Технические основы охраны окружающей среды. Минск. БГТУ, 2005.
3. Аширов А. Ионообменная очистка сточных вод, растворов и газов. М.: Химия, 1983.



## GEOGRAFIYA TA'LIMIDA TELEMASSHG'ULOTLARNING O'RNI.

*Ma'mura Rejapova Isroyilnovna  
Andijon viloyati Andijon tumani  
40-umumta'lism maktabi geografiya  
fani o'qtuvchisi  
Elektron pochta: 8ma1985  
ma'mura.rejapova @ bkru  
Telefon: +998943815753*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida televdeniya orqali onlayn darsi tashkil etilib, hozirda bu o'quvchilarini ta'lism tarbiyasidagi eng yangi vosita masalalari xususida mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** TV Centr,Fashion, TV National Geographis Chan.

*Eng katta boylik-bu aql-zakovat va ilm,  
Eng katta meros-bu yaxshi tarbiya,  
Eng katta qashoqlik-bu bilimsizlikdir.  
Shavkat Mirziyoyev*

O'zbekiston Respublikasida davlat mustaqilligining bиринчи yilidan boshlab yoshlar ta'limi va tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lism to'g'risida" gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ni qabul qilinishi yosh avlod kamolotida uzliksiz ta'lism tizimining ravnaqi haqidagi chinakkam g'amho'rlikning dalilidir.

Xalq ta'limi hodimlarining asosiy vazifasi bilimida vatanparvarlik,milliy iftixor tuyg'ulari jo'sh urib turgan mustaqil O'zbekistonning munosib farzandlarini tarbiyalash va bozor munosabatlari sharoitida faoliyat ko'rsata oladigan yangi avlodni kamol topshirishdir.

Shu maqsada O'zbekiston Respublikasida televdeniya orqali onlayn darsi tashkil etilib, hozirda bu o'quvchilarini ta'lism tarbiyasidagi eng yangi vosita hisoblanmoqda. Televizor ekran ob'ekt, hodisa-voqyalarini, ayni vaqtida o'quvchilarni bosh vaqtini samarali tashkil etish ,onlayn darslarini ko'rsatuvchi ko'zgudir. Onlayn darslar o'quvchilarni geografik landshaft, geografik voqelikning ichiga bevosita kirib borishiga yordam beradi.Televdeniya katta emosional ta'sir kuchiga ega.U o'quvchilarni o'ziga jalb etuvchi, bitmas tunganmas bilim manbaidir.

Televdeniyadan maktab o'quvchilariga mo'ljalangan bir necha ilmiy ommabop suhabat,leksi ya,fil'limlar,shuningdek olamga sayohat,kino sayohatchilar klub, onlayn darslar, fan olamida kabi eshittirishlar beriladi.Bu eshittirishlar o'zining mazmuni jixatidan geografiya faniga tegishlidir. Bunday eshittirishlarning asosiy maqsadi o'quvchilarning bilim doiralarini kengaytirish, ularining turli sohadagi qiziqishlarini ma'lum darajada qondirishdan iboratdir.

Geografiya o'qituvchisi yuqorida aytib o'tilgan eshittirishlardan ta'lism tarbiya jarayonida foydalanishi lozim. Har bir o'qituvchi haftalik onlayn dasturini ko'rар ekan,ularning qaysi birini o'z o'quvchilariga tavsiya etishi, bu bilan birga o'quvchilariga onlayn orqali uy vazifalar berish kerakligi haqida o'ylab ko'rish zarur. O'quvchilarida ko'rgan onlayn darsi eshittirishlaridan ba'zi bir savollar tug'ulish mumkin,bu savollarga o'qituvchi hozirjavoblik bilan javob qaytarishi kerak. TV Centr,Fashion TV,National Geographis Chan telestudiylar orqali o'quv kinofil'mlari bilan birga o'quv dasturlari asosida maxsus o'quv eshittirishlari va ko'rsatuvlari tayyorlanish kerak. "Teledarslar" sinfda, o'quv soatlarida ko'rishga mo'ljalangan bo'ladi.

"Teledars" boshlashdan ilgari telestudiyaga taklif etilgan o'qituvchi mazkur darsning maqsadi va mazmuni, nimalariga e'tibor berilishi zarurligi haqida axborot beradi. Keyini dars boshlanadi. O'qtuvchi tegishli o'quv qurollari va vositalardan foydalanib dars o'tadi.O'tilayotgan darsni yanada qiziqarli, mazmunli qilish uchun uni kundalik hayotga va o'z o'lkasining shart-sharoitiga taqqoslab bog'lash zarur.

Darsni kundalik hayotga bog'lash, asosan, kundalik matbuot, gazeta, jurnallardan radio,



televedeniya ma'lumotlaridan foydalanib borishdan iboratdir. Masalan, biz o'tayotgan mavzu "O'rta Osiyoning ichki suvlari", "daryolari" ekan, ayni vaqtda O'rta osiyodagi biron bir daryoda yangi GES qurilishi boshlanganligini yoki qurilayotgan GESning biron bo'limi ishga tushganligi yangilik sifatida aytilishi yaxshi natija beradi. Undan tashqari, maktab koridoriga osilgan navbatchi kartada yuqoridagi ma'lumot ilova sifatida qayd etib qo'yiladi.

Teledars tugagach, maktab o'qituvchisi o'rganilgan material yuzasidan o'quvchilar bilan onlayn orqali savol javob, suhbat o'tkazadi. O'quvchilar o'qtuvchi tomonidan mustaqil va amaliy ishlarni bajaradilar va baholanadi. Televideniyadan darsga doir maxsus eshittirish (teledars) berilgan o'qtuvchi o'quvchilar bilan doimo kontaktda bo'lib turishi, o'quvchilar esa zarur yozuvchizuvlarni bajarib borishlari lozim.

O'quvchilarni bosh vaqtini samarali o'tkazish uchun o'qtuvchilar tomonidan onlayn orqali uy vazifalar berilib baholanib boorish kerak.

O'quvchilarni onlayn orqali geografiya darslar va amaliy mashg'ulotlar orqali o'z bilimlarni oshirish kerak. Biz mana shunda o'nlayn darslarni va amaliy mashg'ulotlarini o'quvchilari bilan amalga oshirib kelyapmiz.

### Amaliy mashg'ulot.

**1-Amaliy ish:** Yer shari quruqlik va okeanlar maydonini maydonini foizlarda hisoblab, diagrammalarda tasvirlang?

- 1) Quruqlik – 149 mln kv km
- 2) Tinch okeani - 180 mln kv km
- 3) Atlantika okeani – 93 mln kv km
- 4) Hind okeani – 75 mln kv km
- 5) Shimoliy muz okeani Шимолий муз океани – 13 mln kv km  
 $149+180+93+75+13 = 510$  mln kv km yoki 100%.

**Ечиш:** Quruqlik maydoni 149 mln km<sup>2</sup> ni 100% ga ko'payturamiz va yer maydoni 510 mln. kv.km ga bo'lamiz ya'ni:

$$\text{Quruqlik } \frac{149 \cdot 100}{510} = 29.3 \%$$

$$\text{Tinch okeani } \frac{180 \cdot 100}{510} = 35.2 \%$$

$$\text{Atlantika okeani } \frac{93 \cdot 100}{510} = 18.3 \%$$

$$\text{Hind okeani } \frac{75 \cdot 100}{510} = 14.7 \%$$

$$\text{Shimoliy muz okeani } \frac{13 \cdot 100}{510} = 2.5 \%$$
  
mffM: 1 sm = 10 %

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "Maktabda geografiya jurnali" 2013-2014-yil.
2. O. Mo'minov Geografiya o'qitish metodikasi. T. "O'qituvchi"
3. O. Mo'minov, va boshqalar "O'zbekiston tabiiy geografiyasi" T. "O'qituvchi"



## GEOGRAFIK QOBIQ HAMDA ABIOTIK OMILLAR

*Namangan viloyati Chortoq tumanidagi  
26- umumiy o'rta ta'lif maktabi geografiya fani o'qituvchisi  
Karimova To'paxon Mirzajanova*

**Annotatsiya:** Geografik qobiqning yuqori va quyi chegarasini, uning qalinligini turli olimlar turlicha o'tkazishadi va belgilashadi. Geografik qobiqqa bevosita abiotik omillar ham tasir ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** geografik qobiq, suv, atmosfera tuproq, harorat, letosfera,

Atmosferaning quyi atlami — troposfera, litosferaning ustki g'ovak qatlami, gidrosfera va biosferalarni o'z ichiga olgan hamda o'zaro ta'sir etib uradigan yaxlit qobiq Yerning geografik qobig'i deb ataladi. Geografik qobiqning rivojlanishiga Yerning tashqi va ichki nergiyalari ta'sir etadi. Geografik qobiqda sodir bo'layotgan barcha jarayonlarning asosiy qismi Quyosh energiyasi va kamroq qismi yerning ichki energiyasi ta'sirida ro'y beradi.

Geografik qobiqning rivojlanishi uch bosqichdan iborat;

Nobiogen bosqich

Biogen bosqich

Antropogen bosqich

Geografik qobiqning xususiyatlari;

1. litosfera, gidrosfera, atmosfera va biosferalar doimiy ravishda o'zaro aloqadorlikda bo'lishi va bir-biriga ta'sir etishidir;

2. modda va energiya almashinish jarayonining bo'lib turishidir;

3. geografik qobiqda organik hayotning, jumladan, insoniyat jamiyatining mavjudligidir.

Geografik qobiqda hech bir tabiat komponenti alohida rivojlanmaydi. Ular doimo birbirlari bilan bog'langan va o'zaro ta'sir etib turadi. Agar birorta

tabiat komponenti o'zgarishga uchrasa, boshqa tabiat komponenti ham albatta o'zgaradi. Masalan, oddiygina biror daraxtzorning kesilishi oqibatida quyidagi o'zgarishlar sodir bo'ladi: yerosti suvlari sathi pasayadi, u yerda yashovchi hayvonot olami boshqa joyga ko'chadi. Shuningdek, shamol ta'siri

kuchayib, tuproq yemirilishiga olib keladi. Shu atrofdagi obhavoda o'zgarish ro'y beradi. Kechalari salqinroq, kunduzi issiqroq bo'ladi.uchayib, tuproq yemirilishiga olib keladi. Shu atrofdagi obhavoda o'zgarish ro'y beradi. Kechalari salqinroq, kunduzi issiqroq bo'ladi.

### ABIOTIK OMILLAR

Geografik sistemalarning abiotik omillariga quyidagilar kiradi;

- Iqlim
- Tuproq
- Topografik

Iqlim omillariga- harorat, yorug'lik, namlik hamda suv kiradi.

Tuproq omilarini Dokuchayev 1. Iqlim 2. Geologik 3. Topografik 4. Vaqt 5. Tirik organizimlar hosil qiladi deb aytgan.

Topografik omillar boshqa omillarga ta'sir ko'rsatadi va ular bilan uzviy bog'liq.

Geografik qobiqning to'rtta tarkibiy qismida, ya'ni atmosfera, gidrosfera, litosfera va biosferalarda modda va energiya almashinuvi ikkita — gorizontal va vertikal yo'nalishda kuzatiladi. Atmosfera va Dunyo okeanidagi suvning harakatida va litosferadagi vulqonlar harakatida moddalarning ham gorizontal, ham vertical almashinuvi bo'ladi. Geografik qobiqdagi modda va energiyaning almashinuviga Yerning ichki energiyasi, Quyosh energiyasi hamda gravitatsiya kuchi ta'sir etadi. Geografik qobiqda modda va energiya to'xtovsiz almashinib turadi. Bu jarayon murakkab bo'lib, unda sifat o'zgarishlari sodir bo'ladi.

Demak, geografik qobiqning tarkibi bilan doim abiotik omillar chambarchas bog'liq.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Voronkov A. A. Obshaya ekologiya Moskva. 2005 y
2. D. Yormatova. Sanoat ekologiyasi. Toshkent. 2008 y
3. Nuriddinova M.I. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi. T., 2005
4. Geografiya// umumiy o'rta ta'lif maktab darsliklari

**TADQIQOT.UZ  
ТОМОНИДАН ТАШКИЛ ЭТИЛГАН**

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 17-КҮП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(24-қисм)**

**Маъсул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фарруҳ Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.06.2020

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000